

TA'LIM JARAYONIDA MUAMMOLI DARSLARNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH

Go'zalxon Ro'zmetova Maqsud qizi

Intention school jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi.

guzalkhanruzmetova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17412178>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida muammoli darslarni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Muammoli ta'limning mazmuni, tuzilishi hamda uning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muammoli darslarning samaradorligi o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik faoliyati va ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati bilan asoslanadi. Muallif muammoli-modulli o'qitish texnologiyasining egiluvchanligi, o'quv jarayoniga moslasha olish xususiyatlarini tahlil qilib, uning zamonaviy ta'limdagi o'rni va afzalliklarini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Shuningdek, maqolada muammoli ta'limning shakllari, xatoliklar tahlili va ularni didaktik vosita sifatida qo'llashning samarali yondashuvlari yoritilgan. Natijada, muammoli ta'lim talabalarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish va ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirishning muhim omili sifatida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Muammoli ta'lim, muammoli dars, didaktik tizim, izlanuvchan faoliyat, tanqidiy fikrlash, muammoli-modulli o'qitish, pedagogik texnologiya, ijodiy tafakkur, o'quv jarayoni, egiluvchanlik.

Ma'lumki, hozirgi kunda ta'lim jarayonida muammoli darslarni tashkil etish va ularni o'tkazish samarador ta'lim shakli sifatida amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Xo'sh, muammoli darslar qanday tashkil etiladi va uning didaktik imkoniyatlari nimalardan iborat?

Muammoli darsning tuzilishi.

Darsning tuzilishi tematik va darslar rejasi asosida yaratiladi, dars tahlilining mantiqini aniqlab beradi.

Muammoli darsning tuzilishidagi elementlar:

- 1) talabalardagi mavjud bilimlarining dolzarblashuvi;
- 2) yangi bilimlar va harakat usullarining o'zlashtirilishi;
- 3) bilimlar va malakalarining shakllanishi.

Bu tuzilish o'qitishning asosiy bosqichlarini va zamonaviy darsning tashkiliy bosqichlarini ko'rsatadi. Muammoli darsning ko'rsatkichi bo'lib, uning tuzilishida izlanuvchan faoliyatning bo'lishi kerakligidan, tabiiyki, muammolar muammoli dars tuzilishidagi ichki qismdan iborat bo'ladi:

- 1) muammoli holatlarning paydo bo'lishi va muammoni qo'yish;
- 2) taxminlarni olg'a surish va gipotezani asoslash;
- 3) gipotezani isbotlash;
- 4) muammo yechimining to'g'riligini tekshirish;

Muammoli darsning tuzilishi o'qitish jarayonining tashqi va ichki elementlarining birlashuvidan iborat bo'lgani uchun, talaba mustaqil o'quv faoliyatini boshqarish imkonini yaratishga olib keladi [1].

Shunday qilib, insoniyat rivojlanishining hozirgi bosqichida muammoli ta'lim juda zarur, chunki muammoli o'qitish har tomonlama rivojlangan, tanqidiy fikrlovchi, turli xil muammoli vaziyatlardan chiqa olish imkoniga ega bo'lgan, bilimlarni to'play oluvchi va tizimlashtira

oluvchi, o'zining rivojlanishini tahlil qila oluvchi, hamda to'g'rilay oluvchi shaxsni yaratadi va shakllantiradi.

Har qanday o'quv materiali ham muammoli bayon etishga mos kelavermaydi. O'quvchilarga fan tarixini o'rgatishda muammoli vaziyatlarni yaratish oson. Farazlar, yechimlar fandagi yangi ma'lumotlar takroriy bosqichidagi an'anaviy tasavvurlarning inqirozi, muammoga yangicha yondashuvlarni izlash va hokazolar muammoli bayon etish uchun mos keluvchi mavzular hisoblanadi. Kashfiyotlar tarixi orqali izlanish mantiqini egallash – muammoli fikrlashni shakllantirishning asosiy istiqbolli yo'llardan biridir. O'qitishning an'anaviy usulidan muammoliga o'tish muvaffaqiyati, quyidagi ikki omil bilan belgilanadigan "muammolik darajasi"ga bog'liq bo'ladi:

muammoning murakkablik darajasi – mazkur muammo doirasida tahsil oluvchi uchun ma'lum va noma'lumlar nisbatiga ko'ra aniqlanadi;

muammo yechimida tahsil oluvchi ijodiy ishtirokining ham jamoaviy, ham shaxsiy hissalari hisobga olinadi.

Muammoli o'qitishning uchta asosiy shakli mavjud [2].

1. *O'quv materialini muammoli bayon etish* – ma'ruzaviy mashg'ulotlarda monolog tarzda, seminar mashg'ulotlarida esa dialog tarzda olib boriladi. O'qituvchi ma'ruza paytida o'quv materialini bayon etayotganida muammoli masalalar tuzadi va ularni o'zi yechadi, talabalar esa yechimlarni izlash jarayoniga faqat xayolan qo'shiladilar.

2. *Qisman izlanuvchan faoliyat* tajribalar, laboratoriya ishlarini bajarishda muammoli seminarlar, evristik suhbatlar davomida namoyon bo'ladi. O'qituvchi muammoli savollar tizimini tuzadi, bu savollarga javoblar olingan bilimlar bazasiga tayanadi, ammo ular oldingi bilimlarda mavjud emas, ya'ni savollar tahsil oluvchilarga intellektual qiyinchiliklar tug'diradi va maqsadga yo'naltirilgan ijodiy izlanishga undaydi. O'qituvchi imkoni boricha "boshqacha javoblar", yo'naltiruvchi savollarni tayyorlab qo'yishi lozim, u tahsil oluvchilar javoblariga tayanib, yakuniy xulosa qiladi. Qisman izlanish usuli, 3 va 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini (foydalanish, ijod) va bilimlarni 3 va 4-darajasini bilim-ko'nikma, bilim-transformatsiya (qayta shakllanish) ta'minlaydi. An'anaviy tushuntirish va reproduktiv o'qitishga esa, bilim-tanishi va bilim-nusxa shakllanadi, xolos.

3. *Mustaqil tadqiqot faoliyatida* tahsil oluvchilar mustaqil ravishda muammoni ifoda etadilar va uni yechadilar (kurs yoki bitiruv ishlarida, ilmiy tadqiqot ishlarida) va o'qituvchi nazorati bilan yakunlanadi, bu esa 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini (ijod) va 4-darajali eng samarali, mustahkam bilimni (bilim - qayta shakllanish) egallashni ta'minlaydi.

Muammoli o'qitishning didaktik tizimida birmuncha to'liq tadqiq qilingan tashkil etuvchisi muammoli ta'lim hisoblanadi. U o'rganuvchilarning fikrlash faoliyatini birmuncha faollashtirishga, ularda muammoning yechimiga yondashishni shakllantirishga, va nihoyat - ijodiy tafakkurni rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir intellektual qiyinlashuvning maxsus vaziyatlarini - muammoli vaziyatlar va ularning yechimlarini tuzish bilan ta'minlanadi.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasida asosiy diqqat xatoliklarni izlab topish maqsadiga muvofiq tarzda tuzilgan maxsus vaziyatlar tizimi orqali o'rganuvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jihatlariga qaratiladi. U o'zida xatoliklarning uch asosiy guruhini birlashtiradi: gnoseologik, metodik va o'quv. Gnoseologik xatolar bilishga oid xarakterdagi xatolar hisoblanib, bilimlar evolyusiyasi jarayonida olimlar tomonidan yo'l qo'yiladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'quv jarayonida gnoseologik xatolardan foydalanish talabalarda borliqni tanqidiy mushohadalash, tahlil qilish va o'z xatolarini to'g'rilash ko'nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, o'quv predmeti va fanga bo'lgan munosabatlarini o'zgartiradi: o'rganilayotgan fan mazmuni o'rganuvchilar oldida tayyor haqiqatlar yig'indisi sifatida emas, balki g'oyalar va odamlarning tarixiy dramasi tarzda, ijtimoiy maktab va yo'nalishlar kurashi tarzida, odat va yangilanish qarama-qarshiligi sifatida turadi.

Metodik xatolar o'quv xatolari bilan o'zaro bog'liq: o'rganish xatolari ko'p hollarda - o'qitish xatolari natijasidir. O'quv xatolari maxsus tashxislovchi jadvallarda har bir muammoli modul uchun guruhlanadi va keyinchalik kuchli ta'sir etuvchi vositalar sifatida foydalaniladi. Agar an'anaviy o'qitishda bilmaslikdan bilishga o'tish standartli vaziyatlarni qo'llash bilan chegaralansa, muammoli-modulli o'qitishda talabaning yaqindan rivojlanishi doirasi yangi bilimlarni yuzaki o'zlashtirish va noto'g'ri qo'llashga olib keladigan tanqidiy vaziyatlar - xatolar sohasigacha kengaytiriladi. Bunday sharoitda bilmaslikdan bilishga o'tish sohasi o'rganuvchi uchun asosiy muammoga aylanmaydi, balki tabiiy zveno bo'lib qoladi, ularning dolzarb rivojlanish mintaqasiga aylanadi.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasining etakchi sifat belgisi - bu egiluvchanlik hisoblanadi. Zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda egiluvchan avtomatlashtirilgan tizim muhim sanalgani kabi hozir ham, kelajakda ham pedagogik texnologiya samaradorligi ko'p jihatdan uning ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgaruvchan sharoitga moslasha olish va zudlik bilan ta'sir etish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Egiluvchanlik tuzilmali, mazmunli va texnologik holda bo'lishi mumkin.

Tuzilmali egiluvchanlik qator holatlar bilan ta'minlanadi: muammoli-modul tuzilmasining safarbarligi, muammoli-modulli dastur pog'onali, egiluvchan jadval loyihasining mavjudligi va ko'p vazifali o'quv xonalarining jihozlanganlik imkoniyatlari va boshqa.

Mazmunli egiluvchanlik birinchi navbatda ta'lim mazmunini tabaqalashtirish va integratsiyalash imkoniyatlarida namoyon bo'ladi. Bunday imkoniyatning o'zi taklif etilayotgan texnologiyada o'quv materialining blok va modulli tamoyil asosida saralanish evaziga vujudga keladi.

Texnologik egiluvchanlik muammoli-modulli ta'lim jarayonining quyidagi jihati bilan ta'minlanadi: o'qitish metodlarining variantligi, nazorat va baholash tizimining egiluvchanligi, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini yakka tartibda tashkil etish va boshqa.

M.A.Choshanovning ta'kidlashicha, kasb maktablarida o'qitish jarayonini muammoli-modulli asosga o'tkazish quyidagilarga imkon beradi:

- o'quv materialining muammoli modullarini guruhlash yo'li bilan kursni to'liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlarini ishlab chiqishni ta'minlaydigan dialektik birlikda integratsiyalash va tabaqalashtirishni amalga oshirish;
- bilim darajasiga bog'liq holda talabalarning u yoki bu muammoli-modulli dastur variantini mustaqil tanlashi va ularning dastur bo'ylab individual siljish sur'atini ta'minlanishi;
- muammoli modullardan pedagogik dasturli vositalarni yaratish uchun ssenariylar sifatida foydalanish;
- talabalarning bilish faoliyatini boshqarishda o'qituvchi ishida maslahatchi-koordinatsiyalovchi vazifaga urg'uni ko'chirish;

- o'quv materialini bayon qilish tezligi va o'zlashtirish darajasiga putur yetkazmagan holda o'qitish metodlari va shakllari majmuasiga moslik asosida kursni qisqartirish.

Ta'lim mazmunini muammoli-modulli loyihalash quyidagi asosiy tayanchlardan iborat bo'ladi:

- bilish faoliyatining fundamental metodlari doirasida kursni joy-joyiga qo'yib tuzish;
- tayanch muammoli modullarning mazmunini aniqlash. Saralashning muhim sharti bilish faoliyati metodlarining prinsipli mazmuni hisoblanib, umummadaniy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu o'qitishning tayanch mazmuniga oid quyidagi mezonlarni hisobga olishni taqozo etadi:

- fundamental, uzviylik, uzluksizlik va ta'limni insonparvarlashtirish;
- yechimi bilish faoliyati metodlarining mosini qo'llashni talab etadigan yirik kasbiy-amaliy muammolarni turli guruh kasblarining o'ziga xosligini hisobga olib ajratish;
- ixtisosli va darajali tabaqalashtirishni ta'minlashga yo'naltirilgan o'zgaruvchan modullarning mazmunini tanlash va hajmini aniqlash, shuningdek, muammoli-modulli dasturlarning turli - to'liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlari bo'yicha talabalarning yakka tartibda olg'a siljishi uchun sharoitlar yaratish.

Muammoli modullarni qo'llash ko'lamini quyidagi tartibotlarni qamrab oladi: tizimli, avtonom va integratsiyalashgan. Tizimli tartibot muammoli modullaridan mustaqil kurs doirasida foydalanishni taqozo etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent. – 2003 y.
2. Mamarajabov Sh. Xalmuratova J. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. TTESI, 2015y.
3. Abdurasulov , J., & Toshpo'latov , A. . (2025). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ У ПОДРОСТКОВ. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 5(9), 90–99. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/60762>
4. Abdurasulova, Y. . (2025). VOLEYBOLCHILARDA SAKRASH QOBILIYATI VA TEZKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 2(10), 125–129. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/62632>
5. Rustamov , E. (2025). JISMONIY TARBIYA VA SPORT TIZIMIDA YENGIL ATLETIKA SPORT TURINING O'RNI. *Евразийский журнал академических исследований*, 5(9), 121–126. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/60093>
6. Rustamov , E. (2025). VOLEYBOL SPORT O'YINIDA TEXNIK, TAKTIK VA JISMONIY TAYYORGARLIGI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 5(9), 59–63. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/60095>
7. Azimova , D. (2025). THE ROLE OF NANOSTRUCTURED MATERIALS IN ENHANCING ENERGY EFFICIENCY AND THEIR APPLICATION IN AEROSPACE ENGINEERING. *Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук*, 5(9), 13–27. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMTCS/article/view/60766>
8. Abdurasulov , J. (2022). CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANI O'QITUVCHISIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. *Евразийский журнал академических*

исследований, 2(11), 983–988. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/5305>

9. Abduqodirova, D., & Abdurasulov, J. (2025). YOSHLARDA HARBIY-VATANPARVARLIK TUYG'USINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(1), 50–53. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/42882>

10. Abduqodirova, D., Abdulhaqov, U., & Mamatova, Z. (2025). EMOTSIONAL KREATIVLIKNING TALABALAR QAROR QABUL QILISH JARAYONIGA TA'SIRI. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 3(4), 64–69. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/49726>

11. Abduqodirova, D., & Mirislomov, M. (2025). GEOGRAFIYA VA PSIXOLOGIYA FANLARI TUTASHGAN CHEGARA: PSIXOGEOGRAFIYANING SHAKLLANISH TARIXIGA NAZAR. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 2(5, PART 2), 143–149. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/52569>

12. Abduqodirova, D. (2025). TALABALARDA PSIXOLOGIK STRESSNI YENGISH. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 3(2), 69–73. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/45019>

13. Сатторов, Б. (2025). АКТУАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ШКОЛЬНОЙ ДЕЗАДАПТАЦИИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 5(10), 167–178. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/62613>

14. Abduqodirova, D., & Abdurasulov, J. (2025). PSYCHOLOGICAL FEATURES OF IMPROVING MILITARY-PATRIOTIC SENSE IN YOUTH. *Pedagogy and Psychology in the Modern World: Theoretical and Practical Studies*, 4(1), 50–53.

15. Abduqodirova, Dilobarbonu. (2025). PSYCHOLOGICAL FEATURES OF CREATIVITY IN PRESCHOOL CHILDREN. *American Journal of Social Sciences and Humanities*. 1. 112–122.

16. Abduqodirova, Dilobarbonu. (2025). PSYCHOLOGICAL PROBLEMS AFFECTING YOUTH'S PROFESSIONAL CHOICE. 01. 603–606.

17. Abduqodirova, Dilobarbonu. (2025). GEOGRAFIYA VA PSIXOLOGIYA FANLARI TUTASHGAN CHEGARA: PSIXOGEOGRAFIYANING SHAKLLANISH TARIXIGA NAZAR. *Central Asian Journal of Art Studies*. 2. 143–149. 10.5281/zenodo.15490171.

18. Abduqodirova, Dilobarbonu. (2024). TALABALARDA EMOTSIONAL KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH. 5. 224–229.

19. Abduqodirova, Dilobarbonu. (2024). EMOTSIONAL KREATIVLIK: NAZARIY ASOSLARI VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR. *Journal of Economics and Business UBS*. 4. 679–685.

20. Abduqodirova, Dilobarbonu & Abdurasulov, Jahongirmirzo. (2025). YOSHLARDA HARBIY-VATANPARVARLIK TUYG'USINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI. 10.5281/zenodo.14636273.

21. Tojiboyev, Marat. (2024). Talabalar tafakkurini rivojlantirishda innovatsion yondashuv. 5. 168–175.

22. Tojiboyev, Marat. (2025). PEDAGOGIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH VOSITASIDA TALABALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA TAYYORLASH. 3. 85–88.

23. Abduqodirova, Dilobarbonu. (2024). EMOTSIONAL KREATIVLIK: NAZARIY ASOSLARI VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR.. Journal of Economics and Business UBS. 4. 679-685.
24. Abduqodirova, Dilobarbonu. (2024). INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES THE ROLE OF EMOTIONAL CREATIVITY IN STUDENTS' DECISION- MAKING.
25. Abdurasulov, Jahongirmirzo. (2025). HARBIY PEDAGOGIKANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI. 10.5281/zenodo.10704094.
26. Rayev, Jo & Maxmudovich, Sherali & Abdurasulov, Jahongirmirzo. (2025). INNOVATIVE RESEARCH IN MODERN EDUCATION Hosted from Toronto, Canada THE SUBJECT OF MILITARY PSYCHOLOGY.
27. Maxmudovich, Sherali & Abdurasulov, Jahongirmirzo. (2025). SUBJECT, TASKS AND CONTENT OF STUDYING THE BASICS OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION. 10.5281/zenodo.10700581.
28. Abdurasulov, Jahongirmirzo. (2025). TRAINING OF ATHLETES BEFORE THE COMPETITION. MUSOBAQADAN OLDIN SPORTCHILARNI PSIXOLOGIK TAYYORLASH. Eurasian Journal of Social Sciences Philosophy and Culture. 73-76. 10.5281/zenodo.12635442.
29. Madgapilova, Nargiza. (2025). SCIENTIFIC-PRACTICAL AND STRATEGIC BASES OF IMPROVING PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL COOPERATION IN THE INTEGRATION OF SCHOOL AND PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS IN THE CONTEXT OF CONTINUOUS EDUCATION ON THE BASIS OF INNOVATIVE LOGISTICS. 1. 157-166.
30. Madgapilova, Nargiza. (2025). МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ Илимий-методикалық журнал. 164-170.
31. Madgapilova, Nargiza. (2023). THE SPECIFICS OF THE IMPLEMENTATION OF THE PEDAGOGICAL INNOVATIVE CLUSTER APPROACH IN THE SYSTEM OF CONTINUING EDUCATION. 1. 236-244.
32. Eshnayev, Nortoiji & Madgapilova, Nargiza. (2023). CHARACTERISTICS OF IMPLEMENTING THE CLUSTER APPROACH IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. International Journal of Pedagogics. 03. 44-47. 10.37547/ijp/Volume03Issue02-09.